

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Nematova Maftuna</i>	
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i>	
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKТИК TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i>	
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i>	
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i>	
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i>	
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i>	
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i>	
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i>	
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i>	
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i>	
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i>	
BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i>	
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i>	
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i>	
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY	115-119
<i>Tўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i>	
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕХР	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i>	
INGLIZ REKLAMA SHIIDLARI TARJIMASI JARAYONIDA	
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI	125-129
<i>Abdumannonov Xojsiakbar Akmaljon ugli</i>	
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка)	130-136
<i>Abdullaeva Raъno Xikmatovna</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i>	
ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i>	
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i>	
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH	163-169
<i>Xojiyeva Oynisa Shabonovna</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i>	
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI	183-190
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich</i>	
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI	191-196
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Кутыбаева Елизавета Дүйсенбаевна, Аманиязова Света Байнязовна</i>	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	197-203
<i>Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna</i>	
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕМЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i>	
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI	210-216

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i>	
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI	217-223
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI	224-228
<i>Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li</i>	
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH METODIKASI	229-233
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	234-239
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI	240-244
<i>Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI	245-258
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI	259-265
<i>Valieva Xolida</i>	
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLDI	266-271
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	272-277
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i>	
TA'LIM-ISSLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	278-285
<i>Mamaraimova Zebo Shafoatovna</i>	
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI	286-290
<i>Turayev Yolqin Sherzod o'g'li</i>	
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	291-295
<i>Abdurashulova Shoira Kushakovna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	296-305
<i>Sottarov Abduvali Umirkulovich</i>	
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QTISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA	306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i>	
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i>	
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich</i>	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	361-371
<i>Касимов Ойбек Омилович</i>	
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i>	
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i>	
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i>	
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i>	
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i>	
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i>	
BO'LAJAK BOShLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i>	
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	458-463

10.00.00-Филология фанлари

Xo'jamqulov Anvar Jozilovich
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
e-mail: a.xujamqulov@mail.ru

OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek modern adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo'lgan Omon Muxtoring "Xotin podshoh" hamda "Ffu" romanlari misolida ijodkorning o'ziga xos poetik uslubi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: poetik uslub, ekzistensializm, folklor, roman, afsona, rivoyat, kontrast, realizm, absurd, xronotop, zamonaviy adabiyot.

Xujamkulov, Anvar Jozilovich
Doctoral student of Samarkand State University

ASPECTS OF POETIC STYLE IN AMON MUKHTAR'S NOVELS

Abstract. The article analyzes the author's unique poetic style using the examples of the novels "Xotin podshoh" and "Ffu" by Amon Mukhtar, one of the great representatives of modern Uzbek literature.

Key words: poetic style, existentialism, folklore, novel, legend, narrative, contrast, realism, absurd, modern literature.

Хужамкулов Анвар Жозилович
докторант Самаркандского
Государственного Университета

АСПЕКТЫ ПОЭТИЧЕСКОГО СТИЛЯ В РОМАНАХ АМОНА МУХТАРА

Аннотация. Статья анализирует об уникальном поэтическом стиле автора на примере романов «Хотин подшох» и «Ффу» Амона Мухтара, одного из ярких представителей современной узбекской литературы.

Ключевые слова: поэтический стиль, экзистенциализм, фольклор, роман, легенда, повествование, контраст, реализм, абсурд, современная литература.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N30>

Har bir badiiy asarda muallifning o'ziga xos poetik uslubi – dunyoqarashi, individual yondashuvlari, o'y-kechinmalari bilan bir qatorda, u yashab turgan zamon va makonga xos bo'lgan sabablar ta'siri ham sezilib turadi. Shuningdek, ijodkor o'zlikni anglash yo'lida o'zi yashab turgan davr hayoti bilan birga o'tmishga, tarixiy an'analar – qadriyatlargacha murojaat qilishi mumkin. [1:127] Shu ma'noda, yozuvchi Omon Muxtor ijodida ham tarixiy voqealar bayon qilingan lavhalar ko'p uchraydi. Bu haqida adabiyotshunos D.Quronov shunday deydi: "O.Muxtor ijodiy izlanishlaridagi eng maqbul jihat shuki, uning modern adabiyotiga xos usul va

qarashlarni o'zlashtirishda yuksak darajadagi ijodiylik kuzatiladi. Xususan, adib milliy folklor, diniy rivoyatlar va Sharq mumtoz adabiyotiga xos norealistik usullarni asos qilib oladi-da, ularni modern usullari bilan boyitadi, natijada ular milliy adabiy zaminning o'zidan o'sib chiqqandek, sof milliy estetik hodisadek taassurot qoldiradi..."[2:228] Yozuvchining "Xotin podshoh" romani fikrimizga dalildir. Romanda tarixiy faktlar, tarixchilarining yozib qoldirgan ma'lumotlari, muallifi aniq bo'lgan she'riy parchalar bilan birga, qadimiy rivoyatlar, afsonalar, latifa-askiyalar, roviylar tomonidan aytilgan hikoyalar – folklor na'munalarini ham uchratish mumkin.

Romanda Buxoro va butun Turkiston o'lkasiga arab xalifalarining bosqinlari, islom dinining targ'ib etilishi va ayni damda, mahalliy hukmdorlarning arablarga qarshi goh birlashib, goh tarqoq holda olib borgan urush-isyonlari haqida so'z boradi. [3:431]

Roman uch qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi "Turkiston" deb nomlangan va unda Turkiston o'lkasining paydo bo'lish tarixi, Buxoro va uning atrofidagi shahar-qishloqlarning qanday yuzaga kelganligi, hududni ikkiga bo'lib turgan Omul (Amudaryo) daryosining ikki qirg'og'ida joylashgan Xuroson va Turon mamlakatlari turmush tarzi yoritilgan. Asar bosh qahramoni – Xotin podshoh. Bu nom arablardan chiqqan. Uning asli ismi Oynur bo'lib, o'n olti-o'n yetti yoshdagi xivichdek nozik, yoshlik-beg'uborligi, chiroyiga to'lg'in qizaloq-kelinchak. Turmush o'rtog'i Bidun Buxorxudot Buxoro mudofaasi chog'idagi jangda xalok bo'lib, hali emizikli bolasi bilan Oynur taxtga o'tirishga majbur bo'ladi. Asar voqealari Oynur – Xotin podshohning Omul daryosidan dushmanning sol orqali kechib o'tayotganligi haqidagi xabarni eshitib, buning tashvishida kechasi bilan ustayolmay, xalovatsiz tunni bedor, o'ychan o'tkazishi tasviri bilan boshlanadi. Yozuvchi Xotin podshoh o'y-xayollari bahonasida dushmanning kim ekanligini oydinlashtiradi: Makka shahrinda johiliya davrining eng avjiga mingan davrida Islom dinining yuzaga kelishi, payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayoti va u zotdan keyin musulmonlarga bosh bo'lgan xalifalar ("xulafo ar-roshidin", ya'ni "to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar") Hazrat Abu Bakr, Hazrat Umar, Hazrat Usmon va Hazrat Alilarning xalifalik davrlari, ulardan so'ng xalifa Muoviya va aynan, uning hukmronligi davrida Xuroson va Turon, jumladan, Xotin podshoh hukmronlik qilayotgan Buxoroga hujumga shaylanayotgan dushmanning arablar ekanligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, asar ekspozitsiyasida Buxoro va uning atrofidagi shahar-qishloqlarning iqlimi, sharoti, hayvonot va o'simlik dunyosi haqidagi fakt-ma'lumotlar o'quvchida memuar asar o'qiyotgandek taassurot uyg'otadi, beixtiyor "Boburnoma" uslubi xotirada uyg'onadi. Bu haqida muallifning o'zi quyidagilarni bayon qiladi: "Bu asarni kim tarixiy, kim ma'rifiy deyishi mumkin. U – shu kungi roman, qolgani adabiyotshunoslar ishi... Asar ustida ishlayotib, uzoq tarixga tegishli yozuvlar, eski xalq rivoyatlari va qo'shiqlari, Narshaxiy, Vamberi kitoblari, ustod Sadreddin Ayniyning tarixiy maqolalari, akademik Ibrohim Mo'minovning ayrim kuzatuvarlarini ham o'rganishimga to'g'ri keldi..." [3:4-5] Haqiqatdan ham, asar mutolaasi jarayonida kitobxon estetik zavq olish barobarida muallif aytgani kabi "ma'rifiy" ozuqa ham oladi. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodiga mansub ko'plab rivoyat va afsonalar bilan ham tanishadi. Ushbu afsona va rivoyatlarning asar syujetiga mohirlik bilan singdirilishi asarning ortiqcha zo'riqishlarsiz, ertakdekkengil o'qilishini ta'minlagan. Voqealar rivojida Xotin podshohning afsonaviy To'marisga qiyoslanishi [3:10,25], Shiroq jasorati tavsifi orqali buxorxudot shaxzodalarining jur'atsizligi [1:10], roviy obrazi bilan donishmand hikoyanavis – xalq ertakchisi tasviri [3:5] ifoda etilgan. Bundan tashqari, Buxoroning Alp Er To'nga (Afrosiyob) tomonidan bunyod etilganligi to'g'risidagi rivoyat [3:12-16], Eron shaxzodasi

Siyovushning Alp Er To'nga (Afrosiyob) ishonchiga kirib, uning qiziga uylanishi va oxir-oqibat Alp Er To'nga (Afrosiyob)ga xiyonat qilishi oqibatida qatl etilishi, unga atab xalq tomonidan marsiyalar to'qilishi [3:12], turli urf-odatlar (masalan, xo'roz so'yish kabilar)ning hikoya qilinishi tarixiy va ma'rifiy oziq olish bilan bir qatorda, o'quvchini xalq og'zaki ijodiga yetaklaydi. Romanning birinchi qismi, asosan, shular haqida bo'lib, unda o'quvchi asar g'oyasi, mavzusini to'la anglab yetmaydi.

Xotin podshohning "harakatga kelishi" ikkinchi "Qanotsiz qushlar" deb nomlangan qismida kuzatiladi. Unda arab xalifasi Muoviyaning sharq o'lkalari noibi, Xuroson amiri Sayyid ibn Usmonning Buxoroga yurishi, o'rtada bo'lib o'tgan jang tafsilotlari, Xotin podshohning Sayyid ibn Usmon bilan sulh tuzishga majbur bo'lishi, buning uchun uning qabuliga borishiga to'g'ri kelganligi, uchrashuv davomida o'rtada iliq munosabatlarning paydo bo'lishi va bora-bora uning muhabbatga aylanishi, biroq bu muhabbatdan hech bir ma'no yo'qligi sababli oshiq-ma'shuqlarning dardli iztiroblari haqida so'z boradi. Bu munosabatlar natijasida Xotin podshohning nafaqat jasoratlari hukmdor, balki ayollarga xos his-tuyg'ulari, ojizliklari, bir so'z bilan aytganda, ichki ruhiy olami namoyon bo'ladi. Bu o'rinda o'quvchi-kitobxon Xotin podshohni o'zi uchun qaytadan kashf etadi. Ikki o'rtadagi iliq muosabatlar ikki xalqqa ham ko'chib, urush barham topadi. Sayyid ibn Usmon tuzilgan sulh sharti sifatida Buxoroning eng obro'li 80 nafar amaldorini keyinchalik qaytarish evaziga o'zi bilan olib ketadi. Amirlik g'ururi yoki boshqa sababdanmi o'quvchiga tushunarsiz bir holatda Sayyid ibn Usmonning va'dasini bajarmasligi Xotin podshohni ranjitadi. Bu orada bir fitna chiqib, asirlikdagi 80 kishi Sayyid ibn Usmonga suiqasd uyushtiradi hamda u bilan birga o'zlarini ham qatl etishadi. Bu voqealar sodir bo'layotgan paytda Buxoroda mahalliy urf-odatlarga xos bo'limgan bir ish – Farg'onadan masxaraboz va dorbozlar kelib, Xotin podshoh xisor (saroy)ida tomosha ko'rsatishayotgan edi. Tomosha avjiga chiqqan vaqtida, Xotin podshohga bo'lib o'tgan voqeа haqida noxush xabarni yetkazishadi. Ushbu o'rinnarda xalq og'zaki ijodiga yana murojaat qilinganligining guvohi bo'lamiz. Masxarabozlig-u latifago'ylik qizigan bir paytda 40 kun motam e'lon qilinadi. Bizningcha, kontrast usuli orqali bayon qilingan ushbu tasvirlar orqali yozuvchi o'quvchini yaxshilik va yomonlik, ezunglik va yovuzlik, shodlik va qayg'u har doim yonma-yon yurishidan ogohlantirmoqchiday bo'ladi. Bir paytning o'zida ham sevgilisidan, ham 80 nafar qardoshidan ayrilgan Xotin podshoh iztiroblar girdobida qolib, taxtni ulg'ayib qolgan o'g'li Tag'shodaga topshiradi. O'g'li o'zi o'ylaganidek hukmdor bo'lib yetishmaydi. Vatani – Buxoroni Sayyid ibn Usmon dan keyingi Xuroson amiri Qutayba ibn Muslimga jangsiz qo'sh qo'llab topshiradi. Hatto uning sharafiga birinchi farzandi – o'g'lining ismini Qutayba deb qo'yadi. Bu kabi holatlar taxtdan tushgan bo'lsa-da, xalq orasida "ena", "momo" deb nom olgan Xotin podshohni battar iztirobga soladi va qirq yoshida sochlari oqarib, keksayib, kundan kunga cho'kib borishiga sabab bo'ladi. Ayni shu damlarda bir xil tushlar uni qiyinay boshlaydi. Tushida zanjirband tarzda xalqining sahroda sudrab ketilayotganligi, o'zining ham qo'l-oyoqlariga kishanlar solinganligi, oldinda esa yarador Sayyid ibn Usmonning borishi uning xalovatsizligini yanada oshiradi. Bu orada arab amiri Qutayba ibn Muslim ham tush ko'rib, unga ham shu kabi ishoralar bildiriladi va Xotin podshoh bilan iliq munosabat o'rnatishiga turtki bo'ladi. Ushbu voqealar tasviri orqali xalq og'zaki ijodida ko'p uchraydigan holat – muammoning tush unsuri bilan bartaraf etilishiga guvoh bo'lamiz. Ko'rgan tushlari tasirida ikki hukmdor uchrashib, o'zaro muzokara o'tkazishadi. Qutayba ibn Muslim Xotin podshohning salohiyatiga, donishmandligiga guvoh bo'ladi. Muzokaradan so'ng o'zining xobxonasiga kirib uyquga ketgan Xotin podshoh qaytib

uyg'onmay, vafot etadi. Unga hurmat bajo keltirilib, garchi zoxiran islomni qabul qilmagan bo'lsa-da, juma namozida janoza namozini shaxsan Qutayba ibn Muslimning o'zi o'qib beradi.

Asarda ba'zi o'rinnlarda muallifning o'zi ta'kidlab o'tganidek, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Muqimiyl, Hamid Olimjonlarning she'rlaridan satrlar keltiriladi[3:5]. Lekin ushbu parchalar o'quvchiga qo'shimcha estetik zavq berishdan ko'ra asosiy fikrdan chalg'ishiga sabab bo'lgandek, nazarimizda. Umuman, ushbu o'ziga xos uslub yozuvchining boshqa asarlari, masalan, "Ko'zgu oldidagi odam", "Ming bir qiyofa", "Muhabbat o'limdan kuchli" kabi romanlarida ham uchraydi. Ushbu romanlarda va ko'rib o'tganimiz "Xotin podshoh" romanida ham folklar an'analari, xalq og'zaki ijodi namunalaridan sermahsul foydalanish yozuvchi poetik uslubidan dalolat beradi.

Hayot haqiqatini boricha, ortiqcha bezaklarsiz, asliyatida qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlash jahon adabiyoti ta'sirida milliy adabiyotimizda ham bo'y ko'rsatmoqda. Bu kabi asarlar insonning o'z "men"ini topishga intilishi, hayotning ma'nosizligi, insonlardagi boshqarilishga bo'lgan istak ("qullik falsafasi"), hayotini qotib qolgan stereotiplardan xalos etishga xohishning mavjudligi-yu, biroq oxir-oqibatda hech qanday innovatsiya (yangilanish)larga ham ko'nika olmasligi va boshqa shu singari mavzular bilan xarakterlanadi.[5:161] Bu kabi mavzular Omon Muxtorning "Ffu" romanida uchraydi. Unda bosh qahramon – oddiy quruvchi Mulla Toshpo'lat va uning yolg'iz farzandi Toshtemirning absurd (ma'nisiz) hayotda ma'no izlashga bo'lgan intilishlari va buning oqibatida ularning ruhiyatidagi evrilishlar tasvirlangan. "Ffu" romani voqealarining rivoyatga o'xshashligidan kelib chiqib, aytish mumkinki, asar tahlilida xuddi Kamyuda bo'lgani kabi Omon Muxtorda ham uzoq tarixga murojaat qilish ko'zga tashlanadi. "Ffu" romani syujetiga e'tibor qaratar ekanmiz, muallifning o'zi uni "Rivoyat-roman" deb ataydi va buni shunday izohlaydi: "Bir kuni yangi bo'lib ko'ringan dunyo – ertaga eskira boshlaydi".[4:5] Asar bosh qahramoni quruvchi mulla Toshpo'lat yakka-yu yolg'iz, ulg'ayib qolgan farzandi Toshtemirning joriy holatidan norozi. Ayni shu damlarda u bozorda tasodifan sotuvchilar qatorida "boshiga qo'qon do'ppini qiyshi qo'ndirgan chuvak yuzli zot"[4.12] – Haydar Maxsumni uchratib qoladi. Boshqa sotuvchilardan farqli o'laroq, u aql sotuvchi kishi edi. Hayotini behuda o'tkazayotgan, ota-bobolaridan qolgan barcha an'analarga "tupurib qo'ygan" aqlsiz o'g'li Toshtemirga zora foydasi tegishini umid qilib, mulla Toshpo'lat Haydar Maxsumdan aqlining yarmini sotib oladi. Toshtemir, odatda, faqat uchta so'z – xursand bo'lganda "Oh-oh", taajjublanganda "Iy-y" va jahli chiqqanda "Ffu" so'zlaridan foydalanardi, xolos. Otasi bozordan unga aql sotib olgandan keyin u birdan tilga kiradi. Endi, "Oh-oh", "Iy-y" so'zlaridan foydalanmas, ammo har-har zamon "Ffu"dan foydalanib turardi. Har doim o'zining dunyosida yashab kelgan Toshtemir jamiyatdagi oddiy odamlar qatori "normal" hayotga qaytadi. Hatto o'zi haqida: "Inson – o'zini qafasdan erkinlikka chiqarayotgan qush", -deydi. [4.20] O'zi va ota-bobolari kabi quruvchi-me'morlik kasbining boshini tutganligi uchun mulla Toshpo'lat o'g'lidan minnatdor bo'ladi. Biroq uning quvonchi uzoqqa cho'zilmaydi. Xalq orasida tezda obro'si oshib, o'zining atrofiga barcha quruvchi va yigitlarni yig'ib, oddiy odamlarni nazar-pisand qilmay, hatto o'zini yurt boshi – shohlikka munosib ko'ra boshlagan o'g'li Toshtemir zolim insoga aylanadi. Atrofiga yigitlarni to'plab, turli zo'ravonliklar qila boshlaydi. Ustozi usta Mahmudning nasihatlari ham asqatmaydi. Ustozining go'zal qizi, sevgani – Nigorga nisbatan hamadolatsiz munosabatda bo'ladi. Bu kabi holatlardan bezigan ota – mulla Toshpo'lat so'nggi chora sifatida o'sha chuvak yuzli zot – Haydar Maxsumni qidirib topadi va o'g'li uchun xarid qilgan aqlini qaytarib sotib olishni so'rab, yolvoradi. Haydar

Maxsumning o'z aqlini qaytarib sotib olishi u ogohlantirgani kabi og'ir oqibatlarga olib keladi: Toshtemir zindonband etiladi. Endi mulla Toshpo'lat uchun o'g'li qurib bergan saroy, hashamatli hayot tatimaydi. O'g'lining gunohini so'rab shohga borishi ham foyda bermaydi. Yolg'iz o'g'lidan ham ayrilib qolish xavfi uni ming azoblar bilan o'rtaydi va ayni damda, u chorasiz ham edi.

Zindonda yotgan Toshtemirga aql "bitadi". Otasi, ustozasi va sevgilisiga qilgan zulmlari uni iztirobga soladi. Ma'nisiz hayotdan ma'no izlab boshlaydi. Bir vaqtlar ustoziga aytgan gaplarini eslaydi: "Jahl chiqsa, aql qochadi. Qizishmang, peshvo. Menden bir ayb o'tgan bo'lsa, aytin, eshitay... Men uchun inson – olamning gultoji, borliqning shohi! O'z aqli, o'z kuchiga ishonadi! Osmondan marhamat, ehson kutmaydi! Dunyoning to'rt kunlik ekanini bilib, "Ffu" deb yuraveradi. Bir marta berilgan hayotni mashaqqatlardan qo'rmay, rohat-farog'atda o'tkazadi... Men shunga intildim. Sizlar yasagan qolipga sig'madim. O'z yo'limdan bordim! Shu mening gunohimmi?!"[4.26] Toshtemir o'zining hayotda mavjudligi – ekzistensializmini anglab yetadi. Toshtemirning ekzistensiyasi zindonga tushishidan oldin ateistik xarakterda ekanligini uning zo'ravonlik ishlari avjiga chiqqanda uni bu yo'ldan qaytarishga uringan otasi – mulla Toshpo'lat bilan bo'lgan dialogda ko'rish mumkin:

– ... Tushimga Zulfizar (*M.I.: Toshtemirning vafot etib ketgan onasi*) kiradi! Men qiyomatda onangga nima deyman?!

- Qiyomatga balo bormi?! Ffu! Onamga nima deyishingiz kerak?!
- Onang seni shu holda ko'rsa...
- Mening holim shunchalik xarob ekanmi?!
- Xarob... Imorat ham odamning husni. Kiyim! Sen ne-ne obidalarni buzdirib, hammani katalakka tiqding! Hunar degan narsa qolmadi! Hunarmand degan odamni kunduzi chiroq yoqib topolmaysan![4.32]

O'zi uchun hayotda aniq bir missiya topa olmayotgan Toshtemirning izlanishlari quyidagi o'rnlarda yanada konkretlashadi: "Dunyoga nima uchun keldim?! Nega yashayapman?! Hayotda biron ma'no bormi yoki bu noma'lum bir nasibami?! Men kimman?! Makonim qayerda?! Quyundek tentirab, borayotgan manzilim qaysi?! Toshtemir shular haqida o'ylar edi.

Maqsad na edi – jahona kelding?! –

kayfiyatini bayon etib ket..."[4.33]

Xuddi ushbu savollar Toshtemirning zindonband bo'lishi arafasida ham uning xayoliga keladi[4.45] va o'quvchida Haydar Maxsumning o'z aqlini qaytarib sotib olishi oqibatida shu holat ro'y berdi, degandek taassurotni yuzaga keltiradi. Toshtemirning zindondagi holati, o'ylari uning ruhiyatidagi o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Endi uning ateistik ekzistensiali diniy ekzistensialga ko'chadi. Asarda Toshtemirning o'ylari bahonasida shunga monand rivoyat keltiriladi: "Iblis deydiki, havoyi nafsga berilib yashasalar – butga topinish shart emas! Men ularni uch yo'sinda yo'ldan ozdiraman:

1. Harom, nohaq foyda topishga ruju orqali.
2. Yiqqanlarini noloyiq ishlarga sarflash orqali.

3. Loyiq bo'lgan ishlarga harj qilishdan qaytarish orqali".[4.48] Ushbu rivoyat Toshtemir hayotining zindonga qadar bo'lgan aynan modeli edi. Biroq uning zindondagi hayoti ruhiyatidagi tub burilishlarga sabab bo'ldi, deyish mumkin. Hayotdan ma'no izlashga bo'lgan, dunyoning o'tkinchi ekanligi haqidagi o'ylari quyidagi o'rnlarda ko'rindi:

“Bilmadimki, bu jahon foniylar, kajraftor ekan,
Yaxshilar doim yomonning hojatiga zor ekan”. [4.50]

“Dunyoning o‘zi kaftdagи chang; chuqur nafas tortib, ffu! – desang, uchadi-ketadi!”[4.54]

“Men osiy bandaman, gunohim ko‘p! Endi dunyoga etak silkidim. Ffu... Dunyo qattiq mehr qo‘yishga arzimas ekan! Bir-biriga zulm qilishdan, egrilikdan asranib, poklanmoqchiman. Axir har narsaning javobi bor...”[4.58]

Alber Kamyuning “Sizif haqida afsona”sida bo‘lgani kabi “Ffu” ham yaxshilik bilan tugaydi: mamlakat shohining qizi o‘g‘il farzand ko‘rganligi xursandchiligidan hamma mahbuslar, jumladan, dor tagiga keltirilgan Toshtemir ham jazodan qutulib qoladi. Toshtemirning keyingi hayoti esa odamlarga yaxshiliklar qilish bilan o‘tadi. Xullas, yozuvchi Omon Muxtor asar qahramoni Toshtemir misolida kishining hayotda o‘z mavjudligi – “men”ini topishga intilishi, umrning o‘tkinchiligi, absurd hayotda ma’no izlashga bo‘lgan kurash g‘oyalarini ifoda etishga harakat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Khursanov D.B. Realization of metaphorical images in artistic chronotope. ISSN 2277-3630 (online), Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary Research., under Volume: 12 Issue: 01 in January-2023 <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR>. -P 127-132.
2. Normatov U. Ijod sehri. – T., Sharq, 2007.
3. Omon Muxtor. To‘rt tomon qibla: uch romandan iborat Sharq daftari: (trilogiya). – T.: “Sharq”, 2000-y. 431 b.
4. Omon Muxtor. Ffu. Roman. – T., Sharq, 1997.
5. Ahadovich, S. H., & Mahramovna, B. D. (2021). Mo Yan-Representative of Hallucinatory Realism. International Journal on Orange Technologies, 3(3), 161-171.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 12/2 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).